

## **BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA QO'SHIQLARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

**Mamadaliyeva Gulbahor**

*Andijon davlat texnika instituti akademik  
litseyi ingliz tili o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Bolalarga ona tili bilan bir qatorda chet tillarini qulay usullar orqali o'rgatish ularning tilni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va uni tezda o'rganib oladi. Maqolada bolalarga ingliz tilini o'rgatishda qo'shiqlardan samarali foydalanish masalasi yoritildi.

**Abstract:** Teaching children foreign languages in addition to their native language through convenient methods increases their interest in learning the language and helps them learn it quickly. The article discusses the effective use of songs in teaching children English.

### **KIRISH**

Barchaga ayonki, bugungi sifatli ta'lim davrida xorijiy tillarni o'rganishga va o'rgatishga bo'lgan sa'y - harakatlar jadallashib bormoqda. "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident qarori va ushbu qaror ijrosini taminlash borasidagi ishlar sifatida umum ta'lim maktablarining birinchi sinflarida, qolaversa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham ingliz tili mashg'ulotlarining uzluksiz o'qitilishi bunga isbotdir. Tilni o'rganish, o'zlashtirish insonning yosh davrlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham bolaning yoshligidan unga chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'rgatish yaxshi samara beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ingliz tiliga o'rgatishning asosiy maqsadlariga quyidagiularni keltirish o'rinli:

- 1) bolalarda ingliz tilida boshlang'ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirish;
- 2) o'z maqsadlariga erishish, hayotiy aloqa sharoitida fikr va hissiyotlarini ifoda etish uchun ingliz tilidan foydalanish qobiliyati;
- 3) chet tillarini yanada o'rganishga ijobiy munosabat yaratish;
- 4) boshqa mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqishni uyg'otish.

Metodika to'g'ridan-tog'ri ta'lim tadbirlarini o'tkazish bolalarning til qobiliyatlari tuzilishining yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilishi va ularning rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Chet tilida muloqot motivatsiya va yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bolada chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni yaratish kerak va bunday ijobiy motivatsiyani yaratish usuli qo'shiqdir. Qishloq joylardagi boshlang'ich maktab yoshgacha bo'lgan bolalar odatda ingliz tili muhitidan ancha uzoq bo'lgan sharoitda o'sishadi va bolalarning fikrlashi

mavhum shaklda qolaveradi. Bolalarning yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni doimo hissiyotlarga tayangan holda kechadi. Shuning uchun, bog'cha yoshidagi bolalarga ingliz tili o'qituvchilari o'qitishda qo'shiqdan foydalanishadi. Buning uchun qo'shiq va she'rlarni o'rgatishda harakatlar bilan o'rgatish maqsadga muvofiq.

Qo'shiq va she'rlarni o'rgatishda harakatlar jo'rligida o'rgatish bolalarning so'zlarni harakatlar bilan mantiqiy bog'lay olishiga yordam berib, yodlash qobiliyatlarini osonlashtiradi. Qo'shiq va she'rlar orqali tushunish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuyash ham maroqli, ham zavqli bo'ladi. Jumladan, quyidagi "Finger family" (Barmoq oila) qo'shig'ining matni juda sodda, takroriy so'zlarga boy va bolalarning kuylashi uchun qulaydir:

Daddy finger, Daddy finger  
Where are you?  
Here I am, here I am  
How do you do?  
Mommy finger, Mommy finger  
Where are you?  
Here I am, here I am  
How do you do?  
Brother finger, brother finger  
Where are you?  
Here I am, here I am  
How do you do?  
Sister finger, sister finger  
Where are you?  
Here I am, here I am  
How do you do?

Daddy finger, Daddy finger  
What do you do?  
Play guitar, play guitar  
That's what I do  
Mommy finger, Mommy finger  
What do you do?  
Exercise, exercise  
That's what I do  
Brother finger, brother finger  
What do you do?  
Building things, building things  
That's what I do  
Sister finger, sister finger  
What do you do?  
Draw and paint, draw and paint  
That's what I do

Baby finger, baby finger  
Where are you?  
Here I am, here I am  
How do you do?

Baby finger, baby finger  
What do you do?  
Play with friends, play with friends  
That's what I do

Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Qo'shiqlarning samarali usul ekanligini yana bir misol orqali dalillash mumkin. Xususan, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samaralidir.

### **XULOSA**

Qolaversa, mashg'ulotlar jarayonida bolalarning charchog'ini yozish uchun turli jismoniy daqiqalardan foydalanganda, chet tilidagi so'zlarni ishlatish ham tilni

o'rganishda ijobiy natija beradi. Mutafakkirlarni ta'kidlashicha: "Odam nechta tilni bilsa, shuncha olamni taniydi".

Shunday ekan bolalarga ona tili bilan bir qatorda chet tillarini qulay usullar orqali o'rgatish ularning tilni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va uni tezda o'rganib oladi. Hazrat Navoiy ham o'z asarlarida "Til bilgan el bilar" deb xalqni til o'rganishga, dunyoqarashini boyitishga da'vat etgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda —2017- 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2707-sonli Qarori.
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan Davlat talablari. T., 2018 yil.